

QASHQADARYO VILOYATI AHOLISINING HOZIRGI DEMOGRAFIK VAZIYATI

Murodova D.S

Qarshi davlat universiteti o'qituvchisi

O'zbekiston, Qarshi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi Qashqadaryo viloyatidagi demografik vaziyat - aholining o'sishi, tabiiy harakati, migratsiya, ishchi kuchi, urbanizatsiya va aholi punktlari jarayonlari tahlil qilinadi, shuningdek, demografik jarayonlarning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining joriy va istiqbolli chora-tadbirlarini belgilashga ta'siri o'rganiladi.

Kalit so'zlar: demografik vaziyat, aholi tarkibi, demografik siyosat, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlar, mehnat resurslari, migratsiya, aholi punktlari, urbanizatsiya darajasi.

СОВРЕМЕННАЯ ДЕМОГРАФИЧЕСКАЯ СИТУАЦИЯ НАСЕЛЕНИЯ КАШКАДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ

Муродова Д.С

Преподаватель Каршинского государственного университета

Узбекистан, Карши

Аннотация : В данной статье проводится анализ демографической ситуации в Кашкадарьинской области Республики Узбекистан - прирост населения, естественное движение, миграция, трудовые ресурсы, процессы урбанизации и расселения, а также рассматривается влияние демографических процессов на определение текущих и перспективных мер социально-экономического развития страны.

Ключевые слова: демографическая ситуация, структура населения, демографическая политика, экономические и социальные процессы, трудовые ресурсы, миграция, населенные пункты, уровень урбанизации.

CURRENT DEMOGRAPHIC SITUATION OF THE POPULATION OF KASHKADARYA REGION

Murodova D.S.

Teacher of Karshi State University

Uzbekistan, Karshi

Abstract: This article analyzes the demographic situation in the Kashkadarya region of the Republic of Uzbekistan - population growth, natural movement, migration, labor resources, urbanization and resettlement processes, and also examines the impact of demographic processes on the determination of current and future measures of the country's socio-economic development.

Key words: demographic situation, population structure, demographic policy, economic and social processes, labor resources, migration, settlements, level of urbanization.

Har bir davlat aholisining soni va yosh-jinsiy tarkibidagi mutanosiblik, uning rivojlanish istiqbolli dasturlarini ishlab chiqishda asosiy omil hisoblanadi. Aholi soni va tarkibini hisobga olish uslublari, dasturlari, texnikalari jamiyat rivojlanishiga monand doimo rivojlanib, takomillashib keldi. Aholini hisobga olishda, uning umumiy soni, yosh-jinsiy tarkibi bilan bir qatorda oilaviy tarkibi, tugʻilish, oʻlim, nikoh va ajrim kabi demografik jarayonlar, aholi migratsiyasi haqida ham maʼlumotlar toʻplanib boriladi. Aholi geografiyasi va demografik tadqiqotlarda aholi soni eng asosiy koʻrsatkichdir. Aholi soni dinamikasidagi oʻzgarishlarni tahlil etganda uning mutloq va nisbiy koʻrsatkichlaridan foydalaniladi. Aholi sonining juda yuqori surʼat bilan koʻpayib, yoki kamayib ketishi demografik vaziyatni keskin oʻzgarishiga olib keladi. Aholi sonining koʻpayib borishi jamiyatda ishlab chiqarishning mukammallashib borishi, sodir boʻlgan mehnat taqsimotlarining rivojlanishida alohida omil hisoblanadi.

Qashqadaryo viloyati Oʻzbekistonning janubida joylashgan, maydoni 28,6 ming kv.km boʻlib, mamlakat hududining 6,4 % ini tashkil etadi. Viloyat aholisi 3560,6 ming kishini tashkil etadi, shu jumladan qishloq aholisi 2036,4 ming kishi (57,2 %) , shahar aholisi 1524,2 ming kishi (42,8 %). 2023 yil boshidan 78,3 ming kishiga koʻpaydi yoki 2,2 % ga oʻsdi. Aholi soniga koʻra Qashqadaryo viloyati mamlakatda Samarqand va Fargʻona viloyatlaridan keyingi uchinchi oʻrinda turadi. Aholining zichligi har bir kv.km ga 124,6 kishini tashkil etadi.

Oʻtmishda Buxoro amirligi tarkibida boʻlgan Qashqadaryoda 1926 yilga qadar aholi roʻyxatga olinmagan. M.Qoraxonovning (1965y) tadqiqotlariga koʻra 1897 yilda hozirgi Qashqadaryo viloyati hududida taxminan 540 ming aholi istiqomat qilgan boʻlib, shundan qariyb 30 ming kishi shahar aholisiga mansub boʻlgan. 1926 yilda oʻtkazilgan aholi roʻyxati maʼlumotlariga koʻra Qashqadaryo viloyatining aholisi 343,5 ming kishiga yetgan (shahar aholisi-39,1 ming kishi, qishloq aholisi-304,4 ming kishi). 1926-1939 yillar mobaynida viloyatda aholining umumiy soni 118,1 ming kishiga koʻpaydi yoki aholining yillik oʻsishi 2,6 % ni tashkil etdi va viloyat aholisining soni 459,6 ming kishiga yetdi. 1926- 1939

yillarda viloyatda ishlab chiqarish kuchlarining kam rivojlanganligi hamda chetdan keladigan aholi harakatining kam bo'lishi tufayli aholining yillik o'sish darajasi mamlakatdagiga nisbatan past bo'lgan. Pirovardida O'zbekiston umumiy aholisiga nisbatan Qashqadaryo viloyatining tutgan o'rnini 7,5 % dan (1926y.) 7,3 % ga (1939y.) kamaydi. 1939-1959 yillarda Qashqadaryo viloyatining aholisi 48,4 ming kishiga ko'paydi. 1959 yilda o'tkazilgan aholi ro'yxati ma'lumotlariga ko'ra viloyatda 508,0 ming kishi, shu jumladan qishloqlarda 440,6 ming kishi va shaharlarda 67,4 ming kishi istiqomat qilgan.

Qashqadaryo viloyati aholisi o'sishini tahlil qilish bu yerda aholining hududiy tashkil topishi va tabiiy ko'payishi 1960 yillardan boshlanganligini ko'rsatadi. 1960-1980 yillarda Qarshi cho'lini o'zlashtirish maqsadida ulkan gidrotexnik inshootlarning (Qarshi va Kasbi kanallari, suv omborlari, sug'orish tarmoqlari va boshqalar.) barpo etilishi, katta zahiralarga ega bo'lgan neft va gaz konlarining ochilishi va foydalanishga topshirilishi, yirik sanoat korxonalarining ishga tushirilishi va boshqa tadbirlar aholi sonining tez sur'atlarda o'sishiga sabab bo'ldi. Bu davrda viloyat aholisining shakllanishiga tug'ilishning nisbatan yuqori bo'lishi va boshqa hududlardan keladigan aholi harakatining kuchayganligi ham sabab bo'ldi. Natijada viloyat aholisi 508,0 ming kishidan (1959y.) 802,0 ming kishiga (1970y.) yetdi. 1959-1970 yillarda viloyat aholisining soni 57,6 % ga ko'paygan holda o'rtacha yillik o'sishi 4,9 % ni tashkil etdi. Aholi sonining bunday tez sur'atlar bilan o'sishida tabiiy ko'payish bilan bir qatorda chetdan aholining ko'cib kelishi (mexanik ko'payish) ham muhim ahamiyatga ega bo'ldi. 1970 yilda viloyat aholisining 16,5 % ini shahar aholisi tashkil etgan, 1990 yilda esa bu ko'rsatkich 26,0 %, 2024 yilda 42,8 % ni tashkil qildi.

Aholi soni bo'yicha viloyatda Koson tumani oldinda turadi (2024-yilda 312,1 ming kishi). Bu tumanda viloyat aholisining 8,7 %i istiqomat qiladi. Qamashi tumanining aholisi 2024-yilda 293,1 ming kishi tashkil etadi. Koson tumanida aholining o'rtacha zichligi har 1km² ga 166,0 kishi, Qamashi tumanida esa 110,2 kisini tashkil etadi. Qishloq tumanlari orasida aholi soniga ko'ra yuqorida nomlari


qayd qilingan tumanlardan keyin uchinchi o`rinda Yakkabog' tumani (2024-yilda 282,5 ming kishi) turadi. Tumanda aholining o`rtacha zichligi har 1 km² ga 256,8 kishi bo`lib, viloyatda bu ko`rsatkich bo`yicha Kasbi (327,6 kishi), Qarshi (302,3 kishi) tumanlaridan keyingi uchinchi o`rinda turadi.

Aholi soniga ko`ra Yakkabog' tumanidan keyingi o`rinni aholisining soni 282,0 ming (2024- yil) bo`lgan Kitob tumani band etgan bo`lib, tuman aholisining qariyb 20%i tumanning ma`muriy markazida – Kitob shahrida istiqomat qiladi.

Qashqadaryo viloyatining maydoniga ko`ra eng katta – Dehqonobod (4,0 ming km²), Mirishkor (3,21 ming km²) va Nishon (2,11 ming km²) tumanlarining demografik salohiyati nisbatan kichik. Dehqonobod tumanida 159,5 ming kishi, Mirishkor tumanida 129,6 ming kishi va Nishon tumanida 166,6 ming kishi yashaydi. Shunday qilib, viloyatning tog`li va cho`l hududlaridagi tumanlar eng kam aholi yashaydigan tumanlardir.

1-rasm

Qashqadaryo viloyati ma`muriy hududlari bo`yicha aholi sonining o`sish dinamikasi



Manba: Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan

Viloyatda aholi salmog'iga ko`ra G'uzor (222,2 ming kishi), Kasbi (213,0 ming kishi), Qarshi (272,1 ming kishi) tumanlari o`rtacha ko`rsatkichga ega. Ayni vaqtda Qarshi (0,9 ming km²) va Kasbi (0,65 ming km²) tumanlarining yer

maydonining kichikligi sababli aholi zichligi viloyat darajasida eng yuqori ko'rsatkichga ega (tegishlicha 302,3 va 327,6 kishi 1 km² ga).

Umuman olganda, yuqori mintaqa (Shahrisabz, Yakkabog' va Kitob tumanlari) ko'p jihatdan Respublikamizning aholisi zich voha va vodiylariga o'xshab ketadi. Ammo, ta'kidlash joizki, zichlik, quyi mintaqaning ayrim tumanlarida (Kasbi, Qarshi) ham ancha yuqori, ya'ni 250-300 kishiga teng. Qashqadaryo viloyati miqyosida aholi zichligi Qarshi shahrini qo'shib hisoblamaganda har km kv ga 124,6 kishiga to'g'ri keladi. O'z navbatida Qashqadaryo viloyati aholi zichligi bo'yicha Respublikada Farg'ona vodiysi, Toshkent va Samarqand viloyatlaridan keyingi o'rinda turadi.


Keyingi yillar mobaynida, ya'ni 1989-2014 yillar oralig'ida aholi soni ancha tez ko'payib borgan: Muborak tumanida o'rtacha yillik ko'payish 5,70, Kosonda 4,75 % Kitob va Nishon tumanlarida 4,10 foizni tashkil qilgan. Nisbatan pastroq demografik o'sish Dehqonobod (2,40 %), Qarshi (2,50 %) va Kasbi (2,50 %) tumanlarida kuzatiladi. Shu o'rinda e'tirof etish lozimki, mazkur ko'rsatkichlar bo'yicha Muborak tumani respublikamizda eng oldingi o'rinlarni egallaydi. Tuman aholisining bunday tez o'sishi nafaqat tabiiy ko'payish, balki aholi migratsiyasi bilan ham bog'liq (tabiiy resurslarni o'zlashtirish natijasida aholi bu yerga ko'plab ko'chib kelgan). Hududlar kesimida eng yuqori o'sish sur'ati 2023 yilning mos davriga nisbatan Ko'kdala va Chiroqchi tumanida 2,9-2,8 % ni, Qarshi, Koson va Nishon tumanlarida 2,4%, Qarshi shahar va G'uzor tumanida 2,3%, Qamashi, Mirishkor va Kasbi tumanlarida 2,2 % ni, Kitob va Yakkabog' tumanlarida 2,1% ni, Dehqonobodda 2,0 %, aksincha eng kam o'sish sur'ati Shaxrisabz shahrida va Shahrisabz tumanida 1,7 % ni, Muborak tumanida 1,6 % ni tashkil etdi.

Viloyatda tabiiy harakat ko'rsatkichlari boshqa hududlarga qaraganda sezilarli darajada farq qiladi. Viloyatda tug'ilish koeffitsiyenti har 1000 kishi aholiga 28,9 kishini tashkil etadi (2023 yil). Eng yuqori daraja 2000 yilda Chiroqchi tumanida bo'lib, u bu yerda yaqin 34 kishiga barobar (O'zbekistonda oldingi o'rinlarda). G'uzor tumanida ham tug'ilish ancha yuqori – 28,6 %. Ayni

vaqtda umumiy tug‘ilish koeffitsiyenti Shahrisabz tumanida past, Qarshi shahrida esa u 21,8 promille. 2023 yilda ham Chiroqchi tumani tug‘ilish koeffitsiyenti bo‘yicha ajralib turadi (33,6 ‰). Qolgan qishloq tumanlari orasida katta farq kuzatilmaydi. Viloyat markazi – Qarshi shahrida tug‘ilish 26,4 promille. Aholi o‘lim koeffitsiyentida (4,7‰) ham katta raqamlar qayd etilmaydi. U 2023 yilda Dehqonobodda 6,7 ‰, Kasbi va Mirishkorda 5,5-5,4 ‰, Qarshi, G‘uzor va Muborak tumanlarida 5,0 ‰, Koson tumanida 4,8 ‰, Shahrisabz, Yakkabog‘, Qamashi va Nishon tumanlarida 4,4-4,3 ‰ ni ko‘rsatgan. Aholi tabiiy harakatining yakuni, ya’ni tabiiy ko‘payish esa ko‘proq tug‘ilish darajasi ta’sirida shakllangan, eng yuqorisi Chiroqchida (29,8 ‰), eng pasti Shahrisabz va Muborakda (20,4 ‰) qayd etiladi. Shunday qilib, tug‘ilishning yuqoriligi, o‘lim ko‘rsatkichining ancha pastligi viloyatda aholi sonining tez o‘shishiga olib keladi.

2-rasm

Qashqadaryo viloyati qishloq tumanlari aholisining tabiiy harakati (promilleda)




Manba: Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan

Migratsiyaning aholi soni o‘shishiga ta’siri uncha kuchli bo‘lmasada, u salbiy. 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyat bo‘yicha ko‘chib kelganlar soni 9 150 kishini, shu davr mobaynida ko‘chib ketganlar soni esa 16 263 kishini tashkil qilgan, 2022 yilda migratsiya qoldig‘i minus 7289, 2023 yilda minus 7113 kishini tashkil etgan. 2023 yil natijalariga ko‘ra, har ming kishi hisobiga Yakkabog‘

tumaniga 460 kishi kelgan va 1393 kishi ketgan, migratsiya qoldig'i minus 933 kishini tashkil etgan. Qarshi tumanida 1505 kishi kelgan va 1394 kishi ketgan, migratsiya qoldig'i 111 kishi. Qashqadaryo viloyatining qolgan aksariyat qishloq tumanlarida aholi migratsiyasining natijasi manfiy bo'lgan. Eng katta minus qoldiqlar Qamashi (minus 1 168), Yakkabog' (minus 933) va Shahrisabz (minus 817) tumanlarida kuzatilgan.. Shu bilan birga ta'kidlash joizki, Quyi mintaqaning ayrim tumanlarini aholisi (masalan, Muborak, Kasbi, Nishon, Mirishkor) asosan ichki migratsiya natijasida shakllangan.

3-rasm.

Qashqadaryo viloyati migratsiya ko'rsatkichlari



Manba: Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan

Mehnat resurslarining shakllanishi aholining yoshi va jinsiy tarkibiga bog'liq. 1959 yilda o'tkazilgan aholi ro'yxati yakuniga ko'ra erkaklar viloyat aholisi tarkibida 48,1 % ni tashkil etgan. Hozirgi paytda viloyat aholisining 50,6 % ini erkaklar va 49,4 % ini ayollar tashkil etadi.

Qashqadaryo viloyatida tabiiy o'sishning ancha yuqori bo'lishi aholining yosh tarkibiga ancha katta ta'sir ko'rsatadi. Viloyatda barcha aholi orasida yosh bolalalar va

o'smirlar salmog'i ancha yuqori bo'lishini, mehnat resurslari sonining muttasil oshib borishini ta'minlaydi.

Viloyatning umumiy urbanizatsiya darajasi 42,8 % - bu respublika ko'rsatkichidan ancha past (51 %). Bu yerda hammasi bo'lib 12 shahar va 117 ta shaharcha bor. Ulardan Qarshi O'zbekistonning 17 katta shaharlari qatoriga kiradi (295,6 ming kishi, 2023 y.). Shahrisabzda 147,2 ming, Kosonda 164,0 ming kishi yashaydi; Qamashi va Kitob shaharlarida 69-105 mingdan kishi bor. Qolgan shahar va shaharchalarda aholi soni bundan ozroq.

2009 yilda "Qishloq taraqqiyoti va farovonligi" Davlat dasturini qabul qilinishi munosabati bilan viloyatning 119 ta qishloq aholi punktlariga shaharcha maqomi berilgan. Natijada, umumiy urbanizatsiya darajasi 2008 yildagi 24,6 foizga teng bo'lgani holda, u birdaniga 19,0 foizga ortdi. Yangi shaharchalar (agrosaharchalar), ayniqsa Shahrisabz, Qarshi, Kitob va Yakkabog' tumanlarida ko'p. Jumladan, Shahrisabzda bunday maqomga 13 ta, Qarshida 15, Kitobda 13, Yakkabog'da 14 ta qishloqlar ega bo'lgan.

Ma'lumki, Qashqadaryoning yuqori zonasida joylashgan qishloq tumanlarida intensiv sug'orma dehqonchilik yaxshi rivojlangan va shu asosda aholi zich, katta-katta qishloqlar shakllangan. Nisbatan ozroq yangi shaharchalar Mirishkor (3 ta) va Dehqonobod tumanlarida (3 ta) paydo bo'lgan. Yangi shaharchalarni aholi soni bo'yicha eng kattalari: Maymanoq - 15,7 ming kishi, Fazli - 10,5 ming (Kasbi tumani), Yangi Mirishkor - 15,5 ming, Pomuq - 12,4 ming (Mirishkor), Karlik - 15,6 ming (Muborak tumanida), Karashina - 10,1 ming kishi (Dehqonobod tumani) va h.k.

Viloyatda 1042 ta qishloq aholi punktlari mavjud, qishloq fuqarolar yig'inlari 18 ta. Dehqonobod, Qamashi, Kitob, Chiroqchi, Shahrisabz va Yakkabog' tumanlarining har birida 100 dan ortiq qishloqlar bor (eng ko'pi Kitob tumanida - 144 ta). Son bo'yicha eng oz qishloqlar Muborak (15 ta), Mirishkor (22 ta) va Nishon (30 ta) tumanlarida. Bu ma'muriy hududlarning barchasi yangi yerlarni o'zlashtirish munosabati bilan tashkil etilgan.

Qashqadaryo viloyatida o'tgan asrning 70–yillariga qadar ham kichik qishloqlar ko'pchilikni tashkil etgan. Qarshi cho'lini o'zlashtirish va sug'orish hamda yer osti boyliklaridan foydalanish darajasining oshishi, ishlab chiqarishning rivojlanishiga bog'liq holda qishloqlarning yiriklashuvi sodir bo'ldi. Ikkinchidan, tog' hududidagi kichik qishloqlardan aholining Qarshi cho'lga ko'chirilishi, suv omborlari o'rnidagi qishloq aholisining boshqa hududlarga o'tishi ta'sirida bo'ldi. Shu bois Qarshi cho'lida yangi qishloqlar tashkil topdi. Ammo viloyat miqyosida qishloqlarning soni ko'paymadi, aksincha kamayib bordi. 1970 yilda viloyatda 1211 ta qishloq bo'lgan, 1979-yilda esa qishloqlarning soni 1 014 tani, 1989-yilda 1 080 tani tashkil etgan. 2024-yil ma'lumotlariga ko'ra viloyatda 1 042 ta qishloq mavjud.

Qishloqlar sonining kamayishi, shuningdek, shaharlar bilan tutashgan qishloqlarning shaharlarga qo'shilishi bilan ham bog'liq. 1979 – 1992-yillarda 33 ming qishloq aholisi qishloqlarni shaharlar tarkibiga kiritilishi munosabati bilan shahar aholisi maqomini olgan. Shu yillarda Qarshi shahriga yaqin atrofdagi 17 ta qishloq (Aralovul, Arabxona, Qavali, Xudoyzot, Tutak, Yakkabog', Kamandi va b. qishloqlar); Chimqo'rg'on, Pachkamar va Hisorak suv omborlarining barpo etilishi munosabati bilan ularning o'rnidagi qishloq ko'chirilgan edi. Shuningdek, Shahrisabz shahriga 15 ta qishloq va Kitob shahriga 3 ta qishloq qo'shilgan va Kitob shahriga 3 ta qishloq qo'shilgan edi. Shu tufayli 31 ta qishloq yangi hududlarda shakllandi. Qarshi cho'lida Mirishkor tumanida Chamanzor, Navbahor, Guliston, Obod, Cho'lquvar; G'uzor tumanida Sho'rtan, Chilgiz va 8–Mart; Qamashi tumanida Guliston, Mirzadala; Qarshi tumanida Bog'obod, Yangiobod, Haqiqat; Koson tumanida Gulbog'; Muborak tumanida Yangier, Gulshan, Zarbuloq; Nishon tumanida Oydin, Do'stlik, Nuriston, Ko'chatzor, Navro'z, Oq oltin, Paxtakor, Yulduz, Shirinobod, Guliston; Chiroqchi tumanida Navro'z va boshqa qishloqlar shakllandi. Shuningdek, yangi sug'orish inshootlari asosida chorvachilikka ixtisoslashgan xo'jaliklarning paxtachilikka ixtisoslashuvi tufayli ariqlar (kanallar) yoqasida yangi qishloqlar shakllandi va eskilari yiriklashdi.

Viloyatda yer osti tabiiy boyliklarining ochilishi va foydalana boshlashi, bir qator transport infratuzilmalarining – Qarshi, Yakkabog`, Qamashi – Chiroqchi, Qamashi – Langar, Qarshi – Samarqand, Qarshi – Buxoro avtotransport yo`llari hamda Qarshi – Amudaryo, Qarshi – Samarqand temir yo`llarining ishga tushirilishi; G`uzor – Boysun – Qumqurg`on temir yo`llarining qurila boshlanishi tufayli kichik qishloqlar yiriklasha bordi. Buning natijasida 1970 – 1989 yillarda qishloqlar soni 121 taga, 1996 – 2004 yillarda esa 16 taga kamaydi. Ammo, viloyat qishloqlarida aholining soni 1970 – 1989 va 1996 – 2024-yillarda tez o`sdi. 1970-yilda har bir qishloqda o`rtacha 552,8 kishi yashagan bo`lsa, 1979-yilda 808,7 kishi va 1989-yilda 1098,8 kishi yashaydi. Hozirgi paytda viloyatdagi qishloqlarning yiriklashuvi va yangi qishloqlarning shakllanishi bilan qishloqlar orasidagi masofa ham sezilarli o`zgardi. Masalan, 1989 yilda viloyatning qishloqlari orasidagi masofa 5,4 kmni, 2024 yilda 5,1 kmni tashkil qildi. Demak, viloyatning Kitob, Shaxrisabz, Yakkabog`, Qamashi, Chiroqchi, Kasbi, Qarshi tumanlarida qishloqlar zich joylashgan.

Viloyat qishloqlari orasida aholisi 100 va 101 – 500 kishi bo`lganlari tobora kamayib bormoqda. Masalan, keyingi yillarda qishloqlarning yiriklashuvi natijasida ularning soni kamaygan holda, aholi soni 501 – 1000 kishi bo`lgan qishloqlar soni 310 tadan 369 tagacha, aholisi 1001 – 3000 kishi bo`lgan qishloqlar 161 taga, 3000 dan ziyod kishi yashaydigan qishloqlar 36% ga o`sgan. Viloyat tumanlarida qishloqlarning zichligi va ularda yashayotgan aholi soni bir-biridan keskin farq qiladi.

Binobarin, viloyatning tog`li qismida ham kelgusida aholisi 101 – 500 kishilik qishloqlarni saqlab qolish maqsadga muvofiq. Zero, hozirgi paytda ham tekislik hududlarida aholining rivojlanishi va suv bilan bog`liq holda aholini joylashtirishda muammolar yuzaga kela boshladi.

Viloyatning tog` hududlarida joylashgan qishloqlarda 101 – 500 kishi yashaydigan qishloqlar ko`proq. Tog` oldi adirlarida Chiroqchi, Qamashi,

Yakkabog` tumanlarida 500 – 1000 va 1001 – 3000 kishi yashaydigan qishloqlar ko`pchilikni tashkil etadi.

Qarshi cho`li tumanlarida 1001-5000 kishi, Qamashi, Dehqonobod, Shaxrisabz, Chiroqchi, Yakkabog` tumanlarining tog` rayonlarida 101-500 va 501-1000 kishilik qishloqlar ko`pchilikdir. Umuman, viloyatning tog` zonasida yer zahiralarning iqtisodiy koeffitsiyenti kamligi va suv tanqisligi, transport aloqalarining noqulayligi, yer yuzasining notekisligi tufayli yirik qishloqlar kam, ammo yiriklashuv davom etadi.

Viloyatning ko`pgina qishloqlarida aholining tez ko`payishiga bog`liq holda iqtisodiy imkoniyatlar yil sayin kamaymoqda, ortiqcha mehnat resurslari vujudga kelmoqda. Qishloq aholisi 1000 kishidan, aqniqsa 3000 – 5000 dan ortiq bo`lgan qishloqlar soni ko`payib bormoqda. Bu holat ayniqsa 1996 – 2024-yillarda ancha tezlashdi.

Aholi va aholi manzilgohlari soni, uning tarkibiy tuzilishi va taqsimlanishi tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy geografik omillar va hududni o`zlashtirilish darajasidagi xususiyatlarni o`zida aks ettiradi. Shu o`rinda ta`kidlash lozimki, aholi o`sishi, uning joylashishini yirik mintaqa, shaharlar doirasida tadqiq qilish an`anaviy bo`lib qolgan, ammo qishloq aholi manzilgohlari va QFY miqyosida o`rganish esa nisbatan murakkab va mehnat talab qiladi. Kichik - kichik qishloqlarning yiriklashib ular orasidagi masofalarning tobora yaqinlashib, qo`shilib ketishi qishloqlar va ular aholisi to`g`risidagi statistik ma`lumotlarning to`g`ri emasligi nomlarining tez – tez o`zgarib turishi tadqiqotda muayyan qiyinchiliklar tug`diradi. Shu sababdan qishloqlar, ularning tarkibi va funktsional turlanishlariga bag`ishlangan ishlar juda oz bajarilgan.

1-jadval

**Qashqadaryo viloyati qishloq aholi punktlarining
tarkibiy tuzilishi**

Qishloqlar, aholi soni bo'yicha	Qishloq aholi punktlari		Aholisi	
	soni	foizda	ming kishi	foizda
250 kishigacha	46	4,4	9953,5	0,5

251-500 kishi	129	12,3	71665,2	3,6
501-1000 kishi	310	29,6	316521,3	15,9
1001-2000 kishi	369	35,3	708689,2	35,6
2001-3000kishi	105	10,1	352353,9	17,7
3000 kishi va undan ortiq	87	8,3	531516,9	26,7
Viloyat bo'yicha jami	1046	100	1990700	100

Manba: Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida hisoblab chiqilgan.

Boshqa viloyatlarda bo'lganidek, Qashqadaryo aholisi milliy tarkibida o'zbeklar keskin ajralib turadi – 92,3 %. Ikkinchi o'rinda tojiklar – 4,3 %. Qolgan millat vakillaridan turkman va ruslar ko'proq .

1 yanvar 2024 yilning dastlabki ma'lumotlariga ko'ra, Qashqadaryoda mehnatga layoqatli aholi soni 1826,7 ming kishi. Shundan 1316,6 ming kishi iqtisodiy faol hisoblanadi. Iqtisodiyot tarmoqlarida band aholi 1220,1 ming kishi. 2023 yil yakunlari bo'yicha bir yilda 89,4 ming yangi ish o'rinlari yaratilgan (asosan qishloq joylarda). Ishsizlik darajasi 7,3 %. Biroq shunga qaramasdan, viloyatda, xususan uning aholisi zich tumanlarida mehnat resurslaridan to'laroq foydalanish va mehnat bozori faoliyatini yaxshilash muhim muammodir.

Iqtisodiyotda band aholining katta qismi qishloq xo'jaligiga to'g'ri keladi (35-40 %). Shu bilan birga ijtimoiy sohalarda ham bu ko'rsatkich ancha yuqori, sanoat, transport va aloqada esa u pastroq. Umumiy holat viloyat urbanizatsiya darajasining iqtisodiy jihatlarini o'zida aks ettiradi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1.Бўриева М.Р., Тожиева З.Н., Зокиров С.С. Аҳоли географияси ва Демография асослари. - Тошкент, —Тафаккур», 2011.

2.Борисов В. А. Демография. – М.:Издательский дом НОТАБЕНЕ, 1999, 2001.

3.Демографическая энциклопедия/Редкол.: Ткаченко А.А. Аношкин А.В., М.Б. Денисенко и др. – М.: ООО «Издательство «Энциклопедия», 2013.

4.Солиев.А.Худудий мажмуаларнинг назарий асослари (Ўқув кўлланма).- Т.:Университет, 2007.

5. Солиев А. Ўзбекистон иқтисодий ва ижтимоий географияси. – Тошкент, “Университет”, 2014.

6..Murodova D.S. Воумurodov S. Городские резиденции Кашкадарьинской области и изменения их местоположения. "Экономика и социум" №5(96) 2022. с/535-545

7. Murodova D.S.Основные особенности демографической ситуации в Кашкадарьинской области. Экономика и социум” 1 (92) 2022. с/ 72-78

8. Murodova D.S Характеристика природного населения Кашкадарьинской области. Экономика и социум” 4 (83) 2021.226-230 b
- 9.Murodova D. S. Geographical features of the population distribution// Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities Hosted online from Plano, Texas, USA. Date: 1 st March, 2023. P. 1-6
10. Муродова Д. Экономико- географические особенности населения Кашкадарьинской области. ”Экономика и социум” № 2(81) 2021. с/ 55-58
- 11.Murodova D.S.Economic geographical factors affecting the formation of city addresses. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal . Vol. 12, Issue 11, November 2022 . B 29-34
- 12.Муродова Д,С, Хужамова С.Б.Теоретико-методологические аспекты изучения миграционных процессов. Экономика и социум” №4 (95) 2022 с/ 174-178
- 13.Murodova D.S.Main Characteristics Of The Demographic Situation And Economic And Social Development Of Kashkadarya Region. Eurasian Journal of History, Geography and Economics. Belgiya .Volume 16 2023 yil B 32-35
- 14..Yangiboyev M.Yer yuzasining demografik sig'imini aniqlash .Qashqadaryo viloyati misolida, ilmiy –uslubiy ko'rsatmalar.-Т.:1995
15. Safarov I. B., Sh P. I. O'zbekistonda sakral geografiyani rivojlantirish istiqbollari //Экономика и социум. – 2025. – №. 2-1 (129). – С. 510-513.
16. Safarov I. B. Geographical features of pilgrimage tourism (in the case of Kashkadarya region) //Экономика и социум. – 2023. – №. 2 (105). – С. 321-324.